



E CONF SERIES



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th March, 2025

MARKAZIY OSIYODA MILLIY MUNOSABATLAR SHAKLLANISHI VA IJTIMOIY ALOQADORLIGI

Zokirjonov Suhrob Zokirjon o‘g‘li

Andijon davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqola Markaziy Osiyo davlatlaridagi milliy munosabatlar shakllanishi va ularning ijtimoiy aloqadorligi haqida tahlil qiladi. Maqolada regionning tarixiy, siyosiy, va madaniy xususiyatlari, milliy o‘zlikning shakllanishi va uning ijtimoiy tuzilmalarga ta’siri ko’rib chiqiladi. Avvalo, Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiy tajribalari, etnik tarkibi va ularning o’zaro munosabatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy munosabatlarning ijtimoiy aloqalar va integratsiyaga qanday ta’sir ko’rsatishi, xalqaro siyosatdagi o’rni, va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari haqida muhokama qilinadi.

Аннотация:

Данная статья анализирует формирование национальных отношений и их социальную взаимосвязь в странах Центральной Азии. В статье рассматриваются исторические, политические и культурные особенности региона, формирование национальной идентичности и влияние на социальные структуры. В первую очередь анализируются исторический опыт народов Центральной Азии, их этнический состав и взаимосвязи. Также обсуждается влияние национальных отношений на социальные связи и интеграцию, роль в международной политике и перспективы развития в будущем.

Abstract:

This article analyzes the formation of national relations and their social interconnectivity in the countries of Central Asia. The article explores the region's historical, political, and cultural characteristics, the development of national identity, and its impact on social structures. Primarily, the historical experiences of the peoples of Central Asia, their ethnic composition, and interrelations are



E CONF SERIES



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th March, 2025

analyzed. Additionally, the influence of national relations on social interactions, integration, their role in international politics, and future development prospects are discussed.

Millat qurilishi nima degani? Sovet Markaziy Osiyosida Adib Xolid nazariyasi bo‘yicha millatlar qanday barpo etilgan? Dunyodagi jamiyatlar yanada millatchi bo‘lab qoladimi yoki kosmopolitizm bilan galoballashuv g‘alaba qozonadimi? Bu kabi va boshqa savollar Markaziy Osiyo millatlarining shakllanish jarayonlari uchun nechog‘li ahamiyatlari ekanligi ushbu mavzuning asosini tashkil etadi.

Millatni barpo qilish nazariyasi qanday paydo bo‘lgani va uning ma’nosini konstruktivizm nazariyasiga ko‘ra amalga oshadi. Bugungi kunda konstruktivizm nazariyasiga bor narsa sifatida qaralyaptimi, u dolzARBMI? Har xil nazariyalarning birinchi guruhini primordialistlar nomi bilan birlashtirish mumkin, ikkinchi guruhni instrumentalistlar deb atasa bo‘ladi, uchunchi guruh esa konstruktivistlardir¹. Primordialistlar millatlarimizni qisman yaratgan, ya’ni ular identitetlilik-alohidalik, jumladan, etnik alohidaliklar har doim mavjud bo‘lgan, deb hisoblaydi. Urug‘-aymoq va qabila institutlarini tiklashga murojaat qiladi”. Bu – primordialistlar qarashidir.

Ikkinchisi esa – instrumentalistlar. Bu – intrumentalizmga asoslangan konsepsiylar va amaliyotlar. Etnik mansublik esa – nafaqat ongli tanlov qilish imkoniyati. Ya’nikim, siz o‘zingizni ukrain, rus, qozoq yoki o‘zbek deb hisoblashni tanlaysiz. Agar O‘zbekistonda yashayotgan bo‘lsangiz, buning ustiga o‘zbek tilini bilsangiz, pasportingizga o‘zingizni qozoq emas, o‘zbek deb yozdirishingiz mumkin.

Ya’nikim, bu bir tarafdan, ongli ravishdagi tanlovingiz, buni nega tanlayotganingizni o‘zingiz yaxshi bilasiz. Boshqa tarafdan esa, bu chetdan kuchli manipulyatsiya qilish bilan bog‘liq. Mabodo siz biror respublikada yashayotgan bo‘lsangiz va boshqa etnik guruh vakili bo‘lish foydaliroq ko‘rinsa, nega bu ishni qilmasligingiz kerak? Bu ayni narsalarga instrumental yondashuv hisoblanadi. Ya’nikim, qayerdadir etnik guruh a’zolari soni ortdi yoki kamaydi, deb aytishimiz g‘ayritabiiy. Bu allaqanday qonunlar bo‘yicha qat’iy tarzda yuz beradigan jarayon

¹ Griffel, Frank, Al-Ghazali’s Philosophical Theology, (NewYork: Oxford University Press, 2009), s. 4.



E CONF SERIES



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th March, 2025

emas, aksincha, juda tez o‘zgarayotgan va juda murakkab jarayonlar natijasidir. Shuning uchun biz kutilmaganda biror etnik guruh boshqalaridan ko‘ra ustun mavqega ega bo‘ldi, deb gapirsak, bu o‘zimizning tanlovimiznigina emas, qandaydir guruh(lar)ning tashqaridan yoki ichkaridan ta’siri natijasini ham anglatadi. Va nihoyat, konstruktivistlarga gal keldi. Konstruktivistlar fikricha, odamlarning ushbu etnik mansubligi insoniyatning o‘ziga xos xususiyati emas (ya’ni u yo primordialist sifatida tug‘ilgan, yoki instrumentalist sifatida ongli ravishda tanlagan xususiyati emas), aksincha, muayyan tarixiy taraqqiyot natijasidir va nihoyat, etnik mansublik paydo bo‘ladi – uni mana shunday tavsiflash mumkin, ammo bu muayyan tarixiy taraqqiyot natijasi bo‘lib, u ijtimoiylashuv hamda akkultratsiya (madaniyatlarning o‘zaro ta’sirlashuvi, bir xalqning boshqa xalq madaniyatini to‘liq yoki qisman qabul qilishi) kabi murakkab narsalar orqali kechadi. Bu nimani anglatadi? Buning ma’nosi shuki, jamiyat ichida o‘ta murakkab ijtimoiy jarayonlar kechadi. “Millatlarning paydo bo‘lishi, etnik guruhning paydo bo‘lishi va ular asosida millatlarining paydo bo‘lishi murakkab, ijtimoiy konstruksiya hosil qilish, o‘sha millatlarni yaratish yoki hatto o‘sha etnik guruhlarni yaratish natijasidir”². Etnik guruhlar kamdan-kam hollarda yaratilishi mumkin, lekin millatlarni yaratса bo‘ladi.

Shuning uchun konstruktivistlar haqida gapiradigan bo‘lsak, bu Markaziy Osiyo hududida millatlar qanday yaratilgani haqidagi urfga kirgan va juda ommabop tasavvurlardir. Lekin, biz ularni faqat konstruktivistlar yorlig‘i bilan umumlashtirmoqchi emasmiz. Bunda hammasi bor: primordialistlar ham, instrumentalistlar ham. Konstruktivistlar deyishning sababi shuki, bolsheviklar ijtimoiylashtirish masalalariga ko‘proq e’tibor qilgan, ya’ni bolsheviklarni ijtimoiy siyosatidan kelib chiqib, ko‘proq konstruktivistlar deb atash mumkin.

Umuman, G‘arb tarixshunosligi bir butun narsa bo‘lib ko‘rinadi. Sovet tarixshunosligida ham, milliy muammolar bo‘yicha sovet tarixchilari va mutaxassislarining bahslari juda ko‘p bo‘lgan va albatta, nazariy yondashuvlar avloddan-avlodga o‘tishi bilan kuchli tarzda o‘zgarib borgan. Aytib o‘tganimdek,

² Nasr, Hüseyin, İslama Bilim ve Medeniyet, tərc., Nabi Avcı, Kasım Turhan, Ahmet Ünal, (İstanbul: İnsanYayınları , 2015), s. 26.



E CONF SERIES



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th March, 2025

Xolid yangi to‘lqin vakilidir. Sovetshunoslar ma’lumotlarni Mustafo Cho‘qayning mashhur “Turkiston sovetlar hokimiyati ostida” kitobidan olgan³. Lekin sovetlarga qarshi kayfiyatdagi manbalar ham bor edi, shu sabab “divide and rule” (“bo‘lib tashlayu boshqar”) iborasi vujudga kelgan. Bu tadqiqotchilar 80-yillar oxiri, 90-yillarda Toshkent, Ufa va Olma-Otaga safar qilish, o‘scha yerlardagi arxivlarda ishslash, odamlar bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Xolid esa Markaziy Osiyo osmonidagi, Markaziy Osiyo tadqiqotlaridagi eng porloq yulduzlardan biri ekani shubhasiz. U Sharq tillarini ham, rus tilini ham yaxshi biladi. Chegara delimitatsiyasi, respublikalar tashkil etilishi puxta qilingan ish natijasi ekani, bolsheviklar faqat barpo etib qolmasdan, instrumentalistlar ham bo‘lgani haqidagi fikrni eshitish yoki o‘qib bilish hatto G‘arb hamjamiyati uchun ham qaysidir ma’noda kashfiyot bo‘lgan edi. Ular ham yana primordialistlar singari Markaziy Osiyo hududida o‘scha paytgacha yaratilgan kimlikni ham hisobga olgan. Xolid O‘zbekiston jadidlar loyihasi bo‘yicha tashkil etilgani haqida g‘oyani tinmay ilgari suradi. Jadidlar esa Markaziy Osiyoda Temur imperiyasi, Temuriylar, muhtasham madaniyat, iqtisodiy taraqqiyot va mintaqadagi ustunlik va hk.ga asoslangan Chig‘atoy loyihasiga tayangan milliy o‘zlikka oid o‘z qarashini taklif etgan va bolsheviklar ushbu loyihami hisobga olgan. Bundan tashqari, uning fikricha, jadidlar dindor musulmon bo‘lganiga qaramay, jamiyatiga nisbatan tanqidiy kayfiyatdagi G‘arb madaniyatini yoqlovchi ziyorolar, jamiyatida o‘zgarishlarni istagani, lekin ayni vaqtda taqvodor musulmonlar bo‘lgani uchun bolsheviklar ularni yashab turgan jamiyatining tanqidchilari sifatida teatrлari, maktablari, mahalliy madaniyati va hk.ga ega jamiyat qurilishida o‘ziga yordam beradi, deb hisoblagan. Xolid jadidlarni ko‘rsatib bergani, ammo Osiyoning o‘zida – Markaziy emas, O‘rta Osiyoda – jadidlar loyihasiga qarshi juda kuchli muxolifat bo‘lganini ko‘rsatmagani uchun ko‘p tanqid qilindi. Keling, dangal qilib aytaylik: o‘scha yillari jadidlar loyihasiga juda kuchli muxolifat bo‘lgan, gapning po‘skallasi, aynan bolsheviklar jadidlarni maydonga olib chiqqan va ular loyihasini amalga oshirgan edi. Xolid tadqiqotlarining asosiy g‘oyasi – mana shu, u inqilob haqida, inqilob yillari haqida, yuz bergen voqealar va hk. haqida ko‘p gapiradi. U jadidlar, ularning

³ Зиё Гўкалп. Туркчилик асослари. – Т.: 1994. –Б. 30.



E CONF SERIES



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th March, 2025

qarashlari, ishi qanday o‘zgargani xususida fikr yuritadi, Fitrat bilan Cho‘lponni yaxshi ko‘radi. Jadidlar orasidagi mana shu 6 nafar asosiy arbobdan har birini esga olib, barchasi haqidagi qarashlarini bayon qiladi. Lekin Fitratni ko‘p tilga oladi – u jadidlar orasidagi eng murakkab va eng fojeiy shaxs bo‘lgan bo‘lsa, ajab emas. Ayni loyihaning amalga oshirilishiga kelsak..., bolsheviklar O‘zbekistonni jadidlar loyihasi bo‘yicha Markaziy Osiyodagi eng kuchli va qudratli respublikaga aylantirdi. Ular keyinchalik jadidlarning etnik tarkib, etnik komponentga ega kuchli millat barpo etish g‘oyasini amalga oshiradigan bo‘lsa, ushbu hududda qudratli respublikaga ega bo‘lishi mumkinligini tushunib qoladi. Shu sababli boshqalar loyihalar qo‘llab-quvvatlanadi. Nega qozoqlarning Alash g‘oyasi qo‘llab-quvvatlanmadid? Albatta, u shu ma’noda qo‘llab-quvvatlanishi, hatto oldinroq qo‘llab-quvvatlanishi kerak edi. Mohiyatan, 1920 yilda Qozog‘iston SSR loyihasi amalga oshirilishi alash-o‘rdaliklar dasturining bandlari bo‘yicha davom etadi, ya’ni bolsheviklar dastlab joylarda qanday voqealar yuz berayotgani va juda katta xavf borliliga qaragan⁴.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Griffel, Frank, Al-Ghazali’s Philosophical Theology, (New York: Oxford University Press, 2009), s. 4.
2. Nasr, Hüseyin, İslamda Bilim ve Medeniyet, tərc., Nabi Avcı, Kasım Turhan, Ahmet Ünal, (İstanbul: İnsan Yayıncılık, 2015), s. 26.
3. Зиё Гўкалп. Туркчилик асослари. – Т.: 1994. –Б. 30.
4. Kılıç, Rüya, "Osmanlı Devletinde Yönetim-Nakşibendî ilişkilerine Farklı Bakış Halidi Sürgünleri", Tasavvuf: İlimi ve Akademik Araştırma Dergisi, Sayı: 17, Sayfa: 103-119, Ankara, 2006.

⁴ Kılıç, Rüya, "Osmanlı Devletinde Yönetim-Nakşibendî ilişkilerine Farklı Bakış Halidi Sürgünleri", Tasavvuf: İlimi ve Akademik Araştırma Dergisi, Sayı: 17, Sayfa: 103-119, Ankara, 2006.